

Paxta tolasi va tolali chiqindilaridan foydalanish imkoniyatlari tahlili

Qadam Jumaniyazov

"Paxtasanoat Ilmiy markazi" AJ

Doston Anorboyev

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Namunalarni qo'lda miqdoriy saralash standart usul bo'yicha amalga oshirildi. Tajribalarda namunalardan tolali chigit po'stlog'i, chigalliklar va xor-xaslar qo'lda alohida qilib ajratib olindi, tarozida tortildi. Ularning har birining foizlari aniqlandi. Tolali chiqindilarning tarkibini miqdoriy ko'rsatuvchi grafiklardan ko'rinadiki, xor-xas miqdori eng yuqori bo'lgan 6-namuna va unga yaqin bo'lgani 8-namuna ekani aniqlanadi. Shu bilan birga yuqoridagi qonuniyat saqlangani holda sinov usullari turlicha natija beradi.

Kalit so'zlar: ip, tola, chiqindi, chigit po'stlig'i, nuqson

Changes in the raw material base of the yarn industry

Qadam Jumaniyazov

"Paxtasanoat ilmiy markazi" JSC

Doston Anorboyev


Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract: Manual quantitative sorting of samples was carried out according to the standard method. In the experiments, fibrous seed husks, tangles and xor-khas were separated from the samples by hand and weighed on a scale. The percentages of each of them were determined. From the graphs showing the quantitative composition of fibrous waste, it can be seen that sample 6 has the highest amount of xor-khas, and sample 8 is close to it. At the same time, the test methods give different results, while maintaining the above regularity.


Keywords: yarn, fiber, waste, seed husk, defect

Ip yigirishda chiqindilar miqdor jihatidan salmoqli ulushga egaligi bilan birga, qayta ishlash uchun alohida tozalashni taqozo etadi. Yuqoridagi holatlar va ma'lumotlarni hisobga olgan holda ushbu tadqiqotda turli tarkibli aralashmalarni qayta ishlashda hosil bo'lgan chiqindilarni yig'ish, dastlabki qayta ishlash va ishchi aralashmalarga qo'shish imkoniyatlari o'rganildi [1].

Namunalarni qo'lda miqdoriy saralash standart usul bo'yicha amalga oshirildi [2]. Tajribalarda namunalardan tolali chigit po'stlog'i, chigalliklar va xor-xaslar qo'lda alohida qilib ajratib olindi, tarozida tortildi. Ularning har birining foizlari aniqlandi. Tolali chiqindilarning tarkibini miqdoriy ko'rsatuvchi grafiklardan (1-rasm, 2-rasm) ko'rinadiki, xor-xas miqdori eng yuqori bo'lgan 6-namuna va unga yaqin bo'lgani 8-namuna ekani aniqlanadi. Shu bilan birga yuqoridagi qonuniyat saqlangani holda sinov usullari turlicha natija beradi.



1-rasm. Tolali chiqindilar tarkibidagi xor-xas miqdori (1-qo'lda; 2- Shirley Analyzer MK2 da)




2-rasm. Tolali chiqindilar namunalarida tola va xor-xas miqdorini o'zgarishi (1-qo'lda; 2- Shirley Analyzer MK2 da)


Shirley Analyzer MK2 da barabanning zarbasi ta'sirida namunalarni sinovdan o'tkazilganda, ba'zi mo'rt aralashmalar parchalanadi va ko'rinmas chiqindilar miqdori ortadi.

Tolali materiallarni birlamchi va tarkibiy qismlarga ajratilganda ko'rinishlarining tasviri 3- va 4-rasmlarda keltirilgan. Tasvirlardan ko'rinadiki paxta tolasi tarkibida ham zararli nuqsonlarni miqdori oz bo'lsada mavjud.

Ularni o'lchamlari va shaklini inobatga olinganda tola sinfini bilishning o'zi aralashma tuzish uchun yetarli emasligini aytish mumkin [3]. Chiqindilar tarkibidagi nuqsonlar va xor-xasni miqdori bilan bilan bir qatorda son jihatdan va o'lchamlari bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq [4].




3-rasm. Qo'lda saralangan paxta tolasi tarkibidagi xor-xas va nuqsonlarni ko'rinishi:
a-tola; *b*- tolali chigit po'stlog'i; *s*- chigalliklar; *d*- xor-xaslar




4-rasm. Shirley Analyzer MK2 dan o'tkazilgan paxta tolasi tarkibidagi xor-xas va nuqsonlarni ko'rinishi: *a*-tola; *b*- tolali nuqsonlar; *s*- filtrdagi momiq; *d*- xor-xaslar

5- va 6-rasmlarda keltirilgan nuqsonlarni va xor-xaslarni ko'rinishi ularni hosil bo'lish joyi, tayyorlash tartibi yigirish jarayonini tashkil etishda ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.



5-rasm. Tolali chiqindilarni qo'lda saralashda olingan tarkibiy qismlari (namuna № 8): *a*-tolali chiqindi; *b*- tolali chigit po'stlog'i; *s*- chigalliklar; *d*- xor-xaslar



6-rasm. Shirley Analyzer MK2 dan o'tkazilgan tolali chiqindini tarkibiy qismlari (namuna № 8): *a*-tolali chiqindi; *b*- tolali nuqsonlar; *s*- filtrdagi momiq; *d*- xor-xaslar

Bunda tolali chigit po'stlog'ining o'lchamlari va soni foiz hisobidagidan yanada aniqroq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, ma'lum bir maqsadda ip ishlab chiqarish uchun aralashma tarkibini belgilashda tola sinfini sinchkovlik bilan tanlash, tolali chiqindilarining sifatini miqdoriy tahlillarni o'tkazish, ularni aralashtirishga tayyorlash uchun tozalash jarayonini dastlab yirik nuqsonlar va xor-xaslarni ajratish tartibida tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жуманиязов Қ., Анорбоев Д. ЙИГИРИШ КОРХОНАСИ ЧИҚИНДИЛАРИДАН ПНЕВМОМЕХАНИК ИП ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИМКОНИАТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 29. – №. 1. – С. 96-99.
2. Жуманиязов Қ., Анорбоев Д. ЮҚОРИ ЧИЗИҚИЙ ЗИЧЛИҚДАГИ ИП ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИМКОНИАТЛАРИ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 29. – №. 1. – С. 100-103.
3. Kawser M. N. et al. Investigating the properties of cotton fabric coating with polyacrylic rubber and using this polyacrylic rubber coated fabric as an alternative to polyethylene bags //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1142. – №. 1. – С. 012078.
4. Мусаев Н. М., Каримов С. Влияние вида соединения двухслойного трикотажа на его технологические параметры. – 2019.